

AYOLLARNI IJTIMOIY HAYOTDA QO'LLAB – QUVVATLASH VA GENDER  
TENGLIK

Turg'unova Umida

Farg'ona davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15276871>

**Annotatsiya.** "Ayollarning ijtimoiy hayotda qo'llab-quvvatlash va gender tenglik" mavzusi, jamiyatda ayollarning teng huquqlilagini ta'minlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zaruriyatini ko'rsatadi. Ayollarni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish, ularning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Gender tenglikka erishish, faqat ayollarga emas, balki jamiyatning barcha a'zolariga ijtimoiyadolatni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu masala, davlat siyosatidan tortib, jamiyatdagi turli ijtimoiy institutlarga bo'lgan darajalarda qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Annotatsiya, ayollarning ijtimoiy rolini kuchaytirish va gender tenglikni targ'ib qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosat va amaliyotlarni tahlil qilishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, ayollar huquqlari, huquqiy munosabatlar, ijtimoiy hayot.

**ПОДДЕРЖКА И РАСШИРЕНИЕ ПРАВ И ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЖЕНЩИН В  
ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ И ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО**

**Аннотация.** Тема «Поддержка женщин в общественной жизни и гендерное равенство» демонстрирует необходимость обеспечения равных прав женщин в обществе и оказания им всесторонней поддержки. Важно обеспечить активное участие женщин в общественной жизни и их равные возможности в экономической, политической и культурной сферах. Достижение гендерного равенства помогает обеспечить социальную справедливость для всех членов общества, а не только для женщин. Этую проблему необходимо поддерживать на всех уровнях: от государственной политики до различных социальных институтов общества. Целью данной работы является анализ политики и практики, направленных на укрепление социальной роли женщин и содействие гендерному равенству.

**Ключевые слова:** гендерное равенство, права женщин, правовые отношения, общественная жизнь.

**SUPPORTING WOMEN IN SOCIAL LIFE AND GENDER EQUALITY**

**Abstract.** The topic "Supporting women in social life and gender equality" indicates the need to ensure equal rights for women in society and provide them with comprehensive support.

*It is important to ensure the active participation of women in social life, ensuring their equal opportunities in the economic, political and cultural spheres. Achieving gender equality helps to ensure social justice not only for women, but also for all members of society. This issue must be supported at all levels, from state policy to various social institutions in society. The annotation is aimed at analyzing the policies and practices implemented to strengthen the social role of women and promote gender equality.*

**Keywords:** gender equality, women's rights, legal relations, social life.

### **Kirish.**

Bugungi kunda jamiyatda ayollarni qo'llab-quvvatlash va gender tenglik masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Har bir insonning teng huquqlarga ega bo'lishi, xususan, ayollarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari jamiyatning rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. Gender tengligi nafaqat huquqiy asosda, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham qaralishi kerak.

Ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, jamiyatda adolat va barqarorlikni o'rnatishga xizmat qiladi. Bu borada ko'plab tashabbuslar, davlat dasturlari va xalqaro tashkilotlarning faoliyati ayollarning jamiyatdagi o'rmini mustahkamlashga qaratilgan. Gender tenglikka erishish, shuningdek, ijtimoiy tarbiya, qonunlar va siyosat orqali amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayon sifatida har bir jamiyatning taraqqiyoti uchun zarurdir.

### **Asosiy qism:**

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi.

Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos.<sup>1</sup>

Gender tengligi, ya'ni erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquq va imkoniyatlarning teng bo'lishi, XXI asrda global miqyosda dolzarb muammolardan biridir. Ayollarni ijtimoiy hayotda qo'llab-quvvatlash va gender tengligini ta'minlash masalasi ko'plab mamlakatlarda rivojlanayotgan ijtimoiy va iqtisodiy yondashuvlar, siyosat va qonunchilik orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini, ta'lim olish huquqini, siyosiy va ijtimoiy faoliyatda qatnashishini hamda jismoniy va ruhiy sog'ligini himoya qilishni o'z ichiga oladi.

---

<sup>1</sup> <https://oltinsoy.uz>

Gender — xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihatni.

Gender tenglik - ayollar va erkaklar teng sharoitlar yaratilsa, teng munosabatga kirishilsa va teng imkoniyatlarga ega bo‘lganda gender tengligiga erishiladi. Bu ayollar va erkaklarga o‘z qobiliyatini ko’rsatish, inson huquqlari va uning qadrini qiymatini to‘liq namoyon chiqarish imkonini beradi; o‘z jamiyatlarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanishiga o‘zining hissasini qo’shish; va bunday rivojlanishning afzalliklarga erishiladi. Gender tengligi ikki xil jinsning uyda va jamiyatda teng huquqlar va imkoniyatlarga ega bo‘lishiga asoslanadi. Bu adolatli bo‘lish jarayoni va gender tengligiga erishish vositasi hisoblanadi.<sup>2</sup>

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim omillardan biri bu – ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligini ta’minalash va gender tengligini kafolatlashdir. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu yo‘nalishda izchil islohotlarni amalga oshirib, xususan, 2023-yilgi Konstitutsiya islohotlari orqali ayollarning huquq va erkinliklarini mustahkamlash, ularning turmush sharoitini yaxshilash va davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta’minalashga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumi orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida gender tenglik masalasi birinchi darajali konstitutsiyaviy qadriyat sifatida mustahkamlandi. Jumladan, 58-moddada quyidagicha belgilangan:

“Davlat erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minalaydi. Gender tengligiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.”

Bu norma orqali davlat nafaqat erkak va ayollar tengligini e’tirof etadi, balki ushbu tenglikka erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni ham o‘z zimmasiga oladi. Bu yondashuv gender tengligi masalasini deklarativ emas, balki amaliy siyosat darajasiga olib chiqadi.

Shuningdek, Konstitutsyaning 65-moddasida esa quyidagi holat belgilangan:

“Davlat ayollar va erkaklar o‘rtasida teng huquqlilikni kafolatlaydi, ayollarni jamiyatdagি rolini kuchaytirish va ularning manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko‘radi.”

Mazkur modda ayollarni jamiyatda faol bo‘lishga undash, ularning manfaatlarini himoya qilish, ularga qo‘srimcha imkoniyatlar yaratish orqali gender tengligiga amalda erishishni maqsad qiladi.

<sup>2</sup> ‘GENDER TENGLIGI: JAMIYATDA GENDER TENGLIGIGA ERISHISH’  
Xusanova Dilafuz Xusanboy qizi, 3-bosqich talabasi  
Fozilov Asror Akmal o‘g’li JDPU, 3-bosqich talabalari maqolasi.

Gender tengligi va ayollarni ijtimoiy hayotda qo'llab-quvvatlash masalasi diniy va dunyoviy qadriyatlarning qarama-qarshiligi emas, balki o'zaro uyg'unligi asosida qaralishi lozim.

Islom dini ayollarning sha'ni, huquqi va faolligini e'tirof etgan. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi esa ushbu qadriyatlarni zamonaviy huquqiy asosda mustahkamladi. Aynan shu uyg'unlik orqali biz barqaror, adolatli va taraqqiy etgan jamiyat sari olg'a qadam bosayapmiz.

**Xulosa:**

Ayollarni ijtimoiy hayotda qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash, jamiyatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Gender tenglikka erishish, ayollarning barcha sohalarda, jumladan, ta'lim, ish joylari, siyosat, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy faoliyatlarda teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlashni anglatadi. Bunda hukumat va jamiyatning barcha a'zolari, xususan, ayollarga nisbatan diskriminatsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etishlari zarur.

Ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va sog'liqni saqlash tizimida zarur xizmatlarga erkin kirish imkoniyatlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, gender tenglikni ta'minlashda erkaklar ham muhim rol o'ynaydi, chunki ijtimoiy stereotiplar va nohaq qarashlar faqat ayollarga emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, ayollarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish va gender tenglikni ta'minlash — bu nafaqat ayollarning, balki jamiyatning barcha a'zolarining farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, gender tenglikni amalga oshirish, uzoq muddatda barqaror va adolatli jamiyat yaratishning muhim shartidir.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 'Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida'gi qonun.
3. <https://oltinsoy.uz>
4. 'GENDER TENGLIGI: JAMIYATDA GENDER TENGLIGIGA ERISHISH' Xusanova Dilafruz Xusanboy qizi, 3-bosqich talabasi Fozilov Asror Akmal o'g'li JDPU, 3-bosqich talabalari maqolasi.